

Акциядорлик жамияти
«Ўзметкомбинат»

БУЙРУҚ

23.01.2026 у. 101 и/ч -сонли
Бекобод ш.

**««“O‘zbekiston metallurgiya kombinati”
aksiyadorlik jamiyatiga ishga qabul qilishda
tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM
tasdiqlash to‘g‘risida»»»**

O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablariga muvofiq, kombinat tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni tanlov asosida saralab olish jarayonida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash, tegishli ma‘lumot va kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lgan ilg‘or, yuqori malakali fuqarolar orasidan tanlov asosida ishga qabul qilish tizimini takomillashtirish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. 2026-yil 19-yanvarda EDO.IJRO.UZ Idoralararo hujjat aylanish tizimida tasdiqlangan “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga ishga qabul qilish tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM (keyingi o‘rinlarda — Nizom) ilovaga muvofiq buyruq imzolangan kundan e‘tiboran kuchga kiritilsin.

2.Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi (Normatov) Nizom talablariga qat‘iy rioya etgan holda kombinat va uning filiallarida kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish ishlarini tashkil etsin hamda doimiy nazoratni ta‘minlasin.

3.Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va filiallari rahbarlari mavjud bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni belgilangan tartib va shaklda my.uzbeksteel.uz elektron platformasiga buyurtma sifatida o‘z vaqtida kiritib borishni ta‘minlasinlar.

4.Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi direktori (Normatov), Ishlab chiqarishni ta‘minlash va mahsulotlarni sotish departamenti (Mamanov) hamda Axborot texnologiyalari direksiyasi (Buriev) tanlovning test sinovlari va suhbat bosqichlarini tizimli va uzluksiz o‘tkazishni ta‘minlash maqsadida axborot tizimlarining barqaror, texnik jihatdan soz hamda uzluksiz ishlashini ta‘minlash bo‘yicha zarur chora-tadbirlarni amalga oshirsinlar.

5.“O‘zmetkombinat” AJ va uning filiallarida kadrlarni tanlash va ishga qabul qilish to‘g‘risidagi 2023-yil 10-yanvarda 44pr-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan Nizom mazkur buyruq imzolangan kundan e‘tiboran o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

6.Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va filiallari rahbarlari mazkur buyruq mazmunini bo‘ysinuvidagi barcha xodimlarga belgilangan tartibda yetkazish va ularni tanishtirishni ta‘minlasinlar.

Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

**Boshqaruv raisi - Bosh
direktor**



Abdullayev B.T.

Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi

√

Xodimlar va tashkiliy rivojlanish
direksiya direktori

√

NORMATOV B.B.

Boshqarma boshlig'i

√

Буриев А.А.

Bo'lim boshlig'i

√

Азимова Х.А.

KELISHILGAN:
“O‘zmetkombinat” AJ
kasaba uyushmasi qo‘mitasi
raisi
E.Veliullayeva
“09” yanvar 2026 yil



TASDIQLAYMAN:
“O‘zmetkombinat” AJ
Boshqaruv raisi-bosh direktor
B.Abdullayev
“14” yanvar 2026 yil

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatiga ishga qabul qilishda tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi NIZOM

“O‘zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatiga ishga qabul qilishda tanlov o‘tkazish to‘g‘risida”gi Nizom (keyingi o‘rinlarda - "Nizom") O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi talablari asosida “O‘zbekiston metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda - "Kombinat") tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga nomzodlarni tanlov asosida saralab olish jarayonida shaffoflikni ta‘minlash, ilg‘or, yuqori malakali, tegishli ma‘lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega talabgor shaxslarga xalqaro standartlarga muvofiq maxsus elektron dastur asosida teng imkoniyatlar taqdim etgan holda, ularni ochiq tanlov (keyingi o‘rinlarda - "Tanlov") asosida ishga qabul qilish tartibini belgilaydi.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Tanlov mehnat qonunchiligi va ushbu Nizom talablariga muvofiq o‘tkaziladi.
2. Tanlov Kombinat tarkibiy bo‘linmalari va filiallaridagi bo‘sh ish o‘rinlariga malaka talablariga muvofiq eng munosib nomzodlarni saralab olish maqsadida o‘tkaziladi.
3. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo‘llaniladi:
nomzod – Kombinatdagi bo‘sh (vakant) bo‘lgan muayyan ish o‘rnini (lavozimni) egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs;
malaka talablari — nomzodlarga nisbatan Ish beruvchi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar.
tanlov - mazkur Nizom talablari asosida o‘tkaziladigan, Kombinat oldiga qo‘yilgan vazifalarni samarali bajarish bo‘yicha talablarga bilimi, malakasi, kasbiy ko‘nikmasi, shaxsiy psixologik xususiyatlari mos kelishini, shuningdek, barcha fazilatlarini va ustunliklarini, shu jumladan, ma‘naviy-axloqiy va vatanparvarlik sifatlarini xolisona baholashga qaratilgan jarayonlar majmui.
4. Tanlovsiz ishga qabul qilinishi mumkin bo‘lgan holatlar:
 - o‘rindoshlik asosida vaqtinchalik ishga qabul qilish jarayoni;
 - Ish beruvchining taklifi bilan ishga kirayotgan va/yoki mehnat bozorida topilishi qiyin bo‘lgan xodimlar;
 - qonun hujjatlarida yoki Kombinatning lokal-me‘yoriy hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda nomzodlarni ishga qabul qilish (tayinlash) amalga oshirilganda.

2-bob. Tanlovni tashkil etish

5. Ish beruvchi tanlovni Kombinatdagi bo‘sh (vakant) ish o‘rni uchun munosib nomzodlarni tanlash maqsadida tashkil etadi va o‘tkazadi.

6. Tanlovning o'z vaqtida va sifatli tashkil etilishi va o'tkazilishini ta'minlash uchun Kombinat tomonidan tayinlangan tanlov komissiyasi (keyingi o'rinlarda-"Tanlov komissiyasi") tashkil etiladi. Tanlov komissiyasi tarkibiga yo'nalish rahbarining taqdimiga ko'ra rahbarlar, mutaxassislar yoki bo'linmalar xodimlari jalb etilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi tarkibi Kombinat xodimlari orasidan kamida uch kishidan iborat va toq sonli tarkibda shakllantiriladi. Tanlov komissiyasi tarkibida doimiy ravishda Xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasidan rahbar xodim a'zo hisoblanadi.

Tanlov komissiyasi a'zosi bo'lgan xodim boshqa lavozimga o'tkazilganda yoki u bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda, ushbu lavozimni egallagan yoxud tegishli vazifalarni bajarish zimmasiga yuklatilgan xodim Tanlov komissiyasi tarkibiga kiritiladi.

7. Tanlov o'tkaziladigan vakansiyaning xususiyatiga qarab, tanlov jarayoniga holis kuzatuvchilar ham jalb qilinishi mumkin.

8. Tanlov xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasidagi ushbu vazifa bilan shug'ullanadigan bo'lim tomonidan tashkil etiladi va ushbu bo'limning boshlig'i yoki xodimlaridan biri tanlov komissiyasi tarkibiga mas'ul kotib sifatida kiritiladi.

9. Tanlov komissiyasi uning a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi. Tanlov komissiyasining qarori oddiy ko'pchilik ovoz bilan qabul qilinadi va tanlovda ishtirok etgan barcha a'zolar tomonidan tasdiqlangandan so'ng xodimlar va tashkiliy rivojlanish direksiyasi xodimlari va ish beruvchi (ish beruvchi sifatida ishonchnoma berilgan rahbar) kelishib tasdiqlangan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

Berilgan ovozlar soni teng bo'lib qolgan taqdirda, Tanlov komissiyasi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

10. Tanlov komissiyasi tarkibiga nomzodning yaqin qarindoshi yoki tanlovning natijasidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan yoxud tanlovning xolis o'tkazilishiga ta'sir ko'rsatadigan shaxslar kiritilishi mumkin emas.

11. Tanlov quyidagi bosqichlardan iborat hisoblanadi:

- tanlovning o'tkazilishi to'g'risida e'lon berish (websaytlar orqali, ijtimoiy tarmoqlar, telegram);

- nomzodning hujjatlarini qabul qilish va ularni o'rganib chiqish (maxsus platforma yoki rekruting va xodimlarni moslashtirish bo'limida o'rnatilgan tartibda);

- nomzodni test va/yoki suhbat hamda kasb faoliyat turiga qarab amaliy mashg'ulot sinovlaridan o'tkazish (ushbu bosqichda kasbga qo'yilgan talab va uning mohiyatidan kelib chiqib sinov turi tanlanadi);

12. Tanlovda ishtirok etuvchi nomzodlarning saytga joylashtirilgan hujjatlari va shaxsi to'g'risidagi ma'lumotlarning haqiqiyliги, to'g'riligi bo'yicha javobgarlik nomzodlarning o'zida qoladi. Taqdim etilgan ma'lumot hujjat shubhali bo'lib talablarga javob bermaganda nomzod tanlovdan o'tgan bo'lsada, u bilan mehnat shartnomasi tuzilmasligiga asos hisoblanadi.

13. Nomzodlar tanlovda ishtirok etishlari uchun o'z rezyume va hujjatlarini kombinatning **@UmkQabulBot** telegram botiga yuborishlari shart. Nomzod tomonidan rezyume to'ldirishda yolg'on ma'lumot berilgan holatda hamda hujjatlari sohta yoki umuman mavjud bo'lmaganligi aniqlanganda nomzodlarning tanlovdan chetlatilishi uchun asos hisoblanadi.

14. Nomzodlar, o'zlari taqdim qilgan ma'lumotlari bo'yicha barcha belgilangan talablarga muvofiq saralab olinadilar.

15. Nomzodlarga bir vaqtning o'zida bir necha bo'sh (vakant) ish o'rinlari uchun tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi.

16. Nomzodning bo'sh (vakant) ish o'rnini uchun belgilangan malaka talablariga muvofiqligini, shuningdek uning ish tajribasi va kasbiy kompetensiyasini aniqlash uchun Tanlov komissiyasi tomonidan test, suhbat va amaliy mashg'ulot sinov tadbirlarining barchasi yoki ulardan biri o'tkazilishi mumkin.

17. Tanlov o'tkazilayotgan xonaga nomzodlar tomonidan mobil aloqa vositasi, kompyuter yoki boshqa aloqa va telekommunikatsiya vositalari, kitob, lug'at, shpargalka va boshqa materiallar olib kirish hamda foydalanish, shuningdek boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish taqiqlanadi.

Bunda, ushbu taqiqlangan materiallarni olib kirgan yoki foydalangan, shuningdek tanlov vaqtida boshqa nomzodlar bilan suhbatlashgan nomzod tanlovni o'tkazish tartibini buzgan deb hisoblanadi hamda tanlovdan chetlashtiriladi.

18. Tanlovni o'tkazish vaqtida nomzodning natijalari (tanlov natijalari) ballik tizimda baholanadi.

19. Tanlov faqat test sinovlari bo'yicha o'tkazilgan taqdirda, nomzodning natijalari 100 ballik tizimda baholanadi. Bunda test savollari 10 tani va har bir to'g'ri javob 10 ballni tashkil qiladi.

20. Tanlov faqat suhbat shaklida o'tkazilgan taqdirda, nomzodning natijalari 10 ballik tizimda baholanadi. Bunda jami o'tish bali Tanlov komissiyaning har bir a'zosi nomzodni quyidagi mezonlarga asosan baholaydi:

berilgan savollarga to'liq va aniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog'liq tizimli bilimlarga ega bo'lishi, ulardan o'z kasbiy faoliyatida mustaqil foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi — 5 ball;

berilgan savollarga aniq, biroq to'liq javob berolmasligi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishi, ulardan o'z kasbiy faoliyatida foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila olishi — 4 ball;

berilgan savollarga to'liq javob berolmasligi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega bo'lishi, ulardan o'z kasbiy faoliyatida foydalanishni bilishi — 3 ball;

berilgan savollarga noaniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga ega bo'lishi, ulardan o'z kasbiy faoliyatida foydalanishni bilmasligi — 2 ball;

berilgan savollarga noaniq javob berishi, faoliyat sohasi bilan bog'liq bilimlarga yetarli darajada ega emasligi — 1 ball;

berilgan savollarga umuman javob bera olmasligi — 0 ball.

21. Tanlov faqat amaliy mashg'ulotlarni bajarish shaklida o'tkazilgan taqdirda nomzodning natijalari 5 ballik tizimda baholanadi. Bunda Tanlov komissiyasining har bir a'zosi nomzodni quyidagi mezonlarga asosan baholaydi:

amaliy mashg'ulotni sifatli, mehnatni muhofaza qilish, texnika, yong'in xavfsizligi va mashg'ulotni bajarishda rioya etilishi kerak bo'lgan boshqa qoidalarga rioya qilgan holda hamda belgilangan vaqtda bajarishi — 5 ball;

amaliy mashg'ulotni sifatsiz, mehnatni muhofaza qilish, texnika, yong'in xavfsizligi va mashg'ulotni bajarishda rioya etilishi kerak bo'lgan boshqa qoidalarga rioya qilgan holda hamda belgilangan vaqtda bajarishi — 4 ball;

amaliy mashg'ulotni sifatsiz, mehnatni muhofaza qilish, texnika, yong'in xavfsizligi va mashg'ulotni bajarishda rioya etilishi kerak bo'lgan boshqa qoidalarga rioya qilmasdan, belgilangan vaqtda bajarishi — 3 ball;

amaliy mashg'ulotni sifatsiz, mehnatni muhofaza qilish, texnika, yong'in xavfsizligi va mashg'ulotni bajarishda rioya etilishi kerak bo'lgan boshqa qoidalarga rioya qilmasdan hamda belgilangan vaqtdan o'tib bajarishi — 2 ball;

amaliy mashg'ulotni umuman bajara olmasligi — 0 ball.

22. Tanlov test, suhbat va amaliy mashg'ulot sinov turlarining barcha shakllarida o'tkazilishi mumkin. Bunda baholash tizimi o'rnatilgan tartibda belgilanadi.

23. Tanlovning oshkora va xolis o'tkazilishini ta'minlash maqsadida Tanlov komissiyasining tanlov jarayonlari videotasmaga olinadi. Videotasmani saqlash muddati tanlov yakunlangan kundan boshlab, 1 (bir) oyni tashkil etadi.

24. Tanlov natijalari Tanlov komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadigan, Komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnomada qayd etiladi. Ishlab chiqarish zaruriyatiga ko'ra, nomzodlarning hech biri yetarlicha ball to'play olmagan taqdirda, eng baland ball to'plagan nomzodlar ishga qabul qilinishi mumkin.

25. Tanlov natijasiga ko'ra eng yuqori ball to'plagan nomzodlar tanlov g'olibi hisoblanadi va ularga bo'sh (vakant) ish o'rni mavjud bo'lgan taqdirda Kombinatda o'rnatilgan tartibda aylanma varaqasi beriladi. Kombinatda bo'sh ish o'rni bo'lmagan taqdirda esa nomzodlar zahiraga olinadi.

26. Tanlov g'olibi o'z arizasiga ko'ra, mehnat shartnomasini tuzishdan bosh tortgan taqdirda, o'rnatilgan tartibda bo'sh ish o'rniga zahiraga olingan nomzodlar ko'riladi.

27. Tanlovda g'olib bo'lmagan nomzodlar bo'sh (vakant) ish o'rni uchun keyingi tanlovda nomzod sifatida ishtirok etishi mumkin.

28. Tanlovni tashkil etish va o'tkazishda belgilangan talablarga rioya etmaslik holatlari, shuningdek, tanlov komissiyasining xolis qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazgan noqonuniy aralashuvlar va xatti-harakatlar aniqlangan taqdirda, Ish beruvchi o'z tashabbusiga ko'ra, tanlov natijasini to'liq yoki qisman bekor qilishi mumkin.

29. Tanlovda ishtirok etish bilan bog'liq barcha xarajatlar (transport xarajatlari, yashash, ovqatlanish va boshqa xizmatlardan foydalanish) nomzodning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

30. Nomzodlardan Tanlovga tegishli bo'lmagan hujjatlar va ularning nusxalarini talab qilish va olib qolish ta'qiqlanadi.

3-bob. Tanlov o'tkazish to'g'risida e'lon joylashtirish

31. Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'lon, tarkibiy bo'linmalar taqdim qilgan talabnomalarda ko'rsatilgan bo'sh ish o'rnini to'ldirish zaruratidan kelib chiqib amalga oshiriladi. E'lon matni Rekruting va xodimlarni moslashtirish bo'limining mas'ul xodimi tomonidan tayyorlanadi. E'lon matni Kombinatning rasmiy veb-saytida va ijtimoiy tarmoqlarida talabnoma kelib tushgan kundan boshlab besh ish kunidan kechiktirmay, agar kerak bo'lsa, boshqa rasmiy kanallarda yoki Kombinatning ichki platformalarida e'lon qilinadi.

E'londa bo'sh ish o'rinlari, hujjatlarni topshirish muddati va shartlari, tanlovda ishtirok etishni istagan nomzodlarga qo'yiladigan minimal talablar va boshqa tegishli ma'lumotlar ko'rsatilishi kerak.

32. Bo'sh ish o'rinlarining ayrim toifalariga qo'shimcha malaka talablari mavjud bo'lgan taqdirda, ushbu bo'sh ish o'rinlari e'lon qilinganda qo'shimcha talablar to'g'risidagi ma'lumotlar kiritiladi.

33. Tanlov o'tkazilish vaqti to'g'risida nomzodlarga, ularning rezyumeda ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga tanlov o'tkazilishidan kamida bir kun oldin SMS-xabar yuborish yo'li bilan xabar beriladi.

7-bob. Nomzodlarni zaxiraga olish tartibi

34. Kombinatning tarkibiy bo'linmalarini kadrlar bilan o'z vaqtida ta'minlash maqsadida test sinovlarida yaxshi natijalarni ko'rsatgan, ammo suhbat natijalari boshqa nomzodlarga qaraganda past bo'lgan nomzodlar bayonnomada "zaxiraga olish tavsiya etiladi" iborasi bilan rasmiylashtiriladi va Kombinatda yangi ochilgan bo'sh ish o'rinlar uchun takroriy tanlov o'tkazmasdan mutaxassisligi bo'yicha qabul qilinishi mumkin.

8-bob. Yakuniy qoidalar

35. Mazkur Nizomga Kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasi bilan kelishilgan holda, Boshqaruv raisi – bosh direktorning buyrug'i bilan ozgartirish va qo'shimchalar kiritilishi mumkin.

36. Mazkur nizomning amal qilish muddati – 3 (uch) yil.

Xodimlar va tashkiliy rivojlanish

direksiyasi direktori

B.Normatov

Yuridik departamenti bo'lim boshlig'i

N.Radjabov

Komplayens nazorati xizmati boshlig'i

M.Asrorov

**Korporativ xavfsizlik va resurslarni
himoya qilish departamenti direktori**

A.Xafizov